



O'RTA OSIYONING QADIMGI XALQLARI HAQIDA XITOY MANBALARI

Tillayev Dilmurod Ollaberganovich

Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va ularning tarixi haqida turli qarashlar, konsepsiylar, hatto g'ayrilmay talqinlar mavjud. Ularning kelib chiqishi haqida mavjud ilmiy asarlar hamda chet el manbashunosligida bayon qilingan ob'ektiv ma'lumotlarga tayanib, haqiqatni yuzaga chiqarish hozirgi kunning dolzarb vazifasidir. Ushbu maqolada O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Xitoy manbalarida berilgan malumotlar asosida o'rganilishi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Xitoy, manba, Xorazm, Farg'ona, xalq, Avesto, Qang', Kanguy, Toshkent, Sug'd, elchi, Dayyuan, Dovon, Xan, Udi, Ershi.

Jahon xalqlari tarixidan ma'lumki, O'rta Osiyo qadim zamonlardan Sharqning G'arbga tomon darvozasi iqtisodiy va madaniy aloqalar uzatuvchi bo'g'in ro'lini o'ynab kelgan. Sharq xalqlari G'arb sari turli maqsadni ko'zlab intilishlarida hech qachon O'rta Osiyo hududlarini cheklab o'tmaganlar. Qadimda va o'rta asrlarda Yevroosiyo dashtlari aholisi, ayniqsa Olttoy, Janubiy Sibir, Shimoliy Xitoy hududlari nafaqat iqtisodiy, balki etnomadaniy jihatdan ham O'rta Osiyo bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lgan. Bu haqda arxeologik manbalar ko'p material beradi. Arxeolog A.V. Vinogradov bu aloqa natijalarini neolit va eneolit davri Urolorti, shimoliy va sharqiy Qozog'iston yodgorliklari bilan qadimgi Xorazmnning Kaltaminor madaniyati materiallari misolida yaxshi kuzatadi. Bronza davriga kelganda, ayniqsa yilqichilik rivojlanib, ot va tuyadan tez yuruvchi transport hayvoni sifatida foydalanish kashf etilgach, janubiy Sibir va O'rta Osiyo qabilalari o'rtasidagi aloqalar jonlanib ketdi.

Mil.avv. II ming yillikning o'rtalariga kelganda Markaziy Osiyoning cho'l va dasht mintaqalarida, ayniqsa uning Janubiy Sibir, Tog'li Olttoy, janubi-sharqiy Urolorti tumanlarida, Qozog'iston dashtlarida chorvador qabilalar hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy o'zgarishlar yuz berdi. Dasht aholisi orasida mulkiy tabaqalanish jadal kechdi, aholining asosiy boyligi hisoblangan chorva mulkchiligi o'sha davrning harbiy aslzodalari, qabila va urug' oqsoqollari qo'lida to'plana boshlandi, jamiyatda zodagonlar tabaqasi, ozod va erkin mulk egalarini paydo bo'ldi.

Yem-xashak zaxiralari yetarli bo'lgan mintaqalarda chorva mollarini tez ko'payishi bu tabiiy hol. Buni yaxshi tushungan mulk egalarining e'tibori o'sha davr taqozosiga ko'ra, otliq harbiy qo'riqchilar — jangovar suvoriyalar otryadini tashkil etishga qaratildi. Endilikda chorvador aslzodalarning iqtisodiy yuksalishidagi asosiy omil chorva mollarini muntazam yem-xashak bilan ta'minlab borish bo'lib qoldi. Dasht aholisining hali davlat tuzilmalari shakllanmagan. qabilaviy tartib-qoidalari hukm surgan jamiyatida yangi yaylovlarni o'zlashtirish uchun o'zaro kurashlar muqarrar edi. O'sha davr talabiga ko'ra, chorvadorlar jamoalarida jangovar suvoriyalar, ya'ni erkin



ozod harbiylar tabaqasi paydo bo'ldi. Ular qadimgi Eron va Turon xalqlarining muqaddas kitobi "Avesto"da turlar deb atalgan mulkdor chorvadorlar, ya'ni oriylar edi. Oriylar bronza va ilk temir davri ijtimoiy tabaqasi, shakllanib borayotgan dastlabki sinfiy jamiyatning mulkdorlar sinfiga mansub bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. II ming yillikning o'rtalaridan boshlab, O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan Sidaryoning quyi havzalariga Markaziy Osiyoning dasht aholisi jadal kirib kela boshlaydi. Dastlab ular Amudaryoning quyi havzalariga joylashadilar (Tozabog'yob madaniyati).

Ularning bir qismi Sirdaryoning o'rta havzasini, ya'ni Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasiga kirib kelib, Yettisuv orqali qadimgi Farg'onaga (Qayroqqum madaniyati), undan Qayroqqum orqali Ustrushona va So'g'diyona hududlariga yetib boradilar. Hozirgi kunda ularning moddiy madaniyat izlari butun O'rta Osiyo hududlari bo'ylab keng tarqalgan. Ularning izlari hatto O'rta Osiyoning qadimgi dehqonchilik mintaqalarida aynan Murg'ob vohasi yodgorliklarida ham uchraydi. Bronza davridan boshlangan bu migratsiya jatumanlari moddiy madaniyat va qadimgi yozma manbalar tahliliga ko'ra, muntazam ravishda to so'nggi o'rta asrlargacha davom etgan.

Qang' davlati. Xitoy manbalarida Qang' davlati Kanguy yoki Kantsuy deb atalgan. Xitoy tarixchisi Sima Syan o'z xotiralarida kanguylarning joylashishi, harbiy kuchi, urf-odati, ularga qo'shni xalqlar haqida qisqacha ma'lumot beradi.

Kanguylar haqida batafsil ma'lumot Ban Gu asarida va boshqa Xitoy mualliflarining asarlarida berilgan. Kanguylarning xo'jaligi, madaniyati va turmush Tarzi haqida arxeolog olimlarning qovunchi madaniyatiga oid yodgorliklarda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari taxsinga sazovar. Qanguy davlati va uning tashkil topgan hududi masalasida yaqingacha S.P.Tolstov fikriga suyangan holda, O'zbekistan tarixida noto'g'ri tasavvurlar hukmron bo'lib keldi. Ammo keyingi yillarda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonda olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishmalar Kanguy davlatining joylashgan hududi haqida tarixiy haqiqatni yuzaga chiqardi. Turon podsholarining bosh shahri Qang'diz — hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan. Qang'ashahar xarobasi ekanligi aniqlandi.

Xitoy manbalariga ko'ra, qang'arlarda davlat bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Iskandar harbiy yurishlaridan keyin O'rta Osiyoning qadimgi erksevar ko'chmanchi qabilalar janubda Yunon-Baqtriya davlati tashkil topgach, darxol shimolda ko'chmanchi qabilalar va o'troq aholi mahalliy hokimliklari ittifoqi asosida o'z davlatini tuzadilar. Bu davlat yarim o'troq, yarim ko'chmanchi qabilalar konfederatsiyasi sifatida tashkil topgan Qang' davlati edi. Muntazam harbiy kuchga ega bo'lgan bu davlatning siyosati O'rta Osiyo janubida tarkib topgan yunonlar hukmronligiga qarshi qaratilgan edi. Shunisi alohida tahsinga sazovorki, bu davlat aholisi ikki tilda (sug'diy va turkiy) so'zlashuvchi qabila va elatlardan tashkil topgan bo'lib, bu zaminda yashovchi qadimgi eroniylardan so'zlashuvchi tubjoy xalqlarning Janubiy Sibir, Oltoy, Janubi-sharqiy Urolorti, Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy qabilalar bilan aloqalari, yaqinlashish jatumanlari



jadallashadi. Natijada, mil.avv. III asrdan boshlab Sirdaryoning o'rta oqimi tumanlarida turkiy tilda so'zlashuvchi yangi etnos vujudga kela boshlaydi. Milodiy eraning boshlariga kelganda bu yangi etnos son jihatidan ko'payib, O'rta Osiyoning ikki azim daryolari oralig'ida va ularning tevarak-atrof tumanlarida o'z ustunligini ta'minlaydi va ular alohida qang'ar elati bo'lib shakllanadi. Ana shu elat birligi asosida tarkib topgan siyosiy uyushma, ya'ni o'zbek davlatchilik tizimining boshlang'ich kurtagi mana shu Qang' davlati edi.

Qadimgi manbalarda Qang' davlatining qanday idora qilinganligi, davlat tuzilishi qanday bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar yetib kelmagan. Ammo to'ng'ich Xan sulolasi tarixida (mil.avv. II-I asrlar) Kanguy podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutishi haqida eslab o'tiladi. Qang' davlatida oqsoqollar kengashi katta rol o'ynagan. Bu kengashda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashib, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar hal etilgan. Podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan hamkorlikda ish yuritgan. Bunday boshqaruvi uslubi tarixda harbiy demokratiya prinsiplari asosida tashkil topgan davlat tizimi deb nom olgan.

Qang' davlatiga qarashli yerlar bir necha viloyatlardan tashkil topgan edi.

Ular chorvador qabilalarga tegishli mintaqalar bo'lsa, ularni boshqarish jabg'u (yabg'u)larga topshirilgan. Qang' xoqonlari mamlakatni ana shu jabg'ularga tayanib boshqarar ekan, ular, odatda, xoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavm qarindoshlaridan, yirik urug' va qabila boshliqlaridan tayinlangan. Qang' davlati tarkibida bo'lgan aholisi o'troq viloyatlarini boshqarish esa mahalliy hokimliklar tasarrufida qoldirilib, ular xoqon tomonidan tayinlangan tudunlar nazoratida markaziy hokimiyatga muntazam ravishda soliq (boj) to'lab turgan. Ana shunday tobe viloyatlarga Xorazm, Sug'd viloyatlari, Urol tog' oldi tumanlari (alanlar, yan qabilalari) kirgan.

Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlatining chegaralari aniq ko'rsatilmagan. Ammo mil.avv. II asrda Qang' davlati Dovonning shimoli-g'arbida bo'lganligi eslatib o'tiladi, ya'ni "Kanguy Dovon bilan chegaradosh" deyilgan. Milodiy I-III asrlarga oid kichik Xan sulolasi tarixida esa Sharqiy Turkiston viloyati shimolda "kanguylar bilan chegaradosh" deyilgan. Xitoy elchisi Chjan Syan bergen ma'lumotlarda harbiy meridian yo'li haqida gap ketganda, bu yo'l avval Dovondan, so'ngra Kanguydan o'tib, Yansay (alanlar) yeriga o'tib boradi, deyilgan. Xitoy manbalariga ko'ra, Qang' davlatining asosiy yerlari Toshkent vohasi, Janubiy Qozog'iston, Talas vodiysi, Chu daryosining quyi oqimlari, undan to Sarisuv daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Sima Syanning "Tarixiy yilnomalar" asarida yozilishicha, Qang' davlatining poytaxti ikkita bo'lgan. Manbada xabar berilishicha, Kanguyning poytaxti Bityanda bo'lgan deyiladi. S.P.Tolstov ularni dastlab qadimgi Xorazmdan qidirdi. Ammo yozma manbalarni arxeologik yodgorliklar bilan qiyosiy o'rganish natijasida olimlar Bityan (Qang'diz) Xorazmda emas, balki Toshkent vohasida joylashganligini isbotladilar. Darhaqiqat, Qang' davlatining qishki poytaxti sifatida Bityan aynan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan Qanqatepa shahar xarobasi ekanligi aniqlandi.



Qanqa, ya'ni qadimgi Qang'diz (Bityan) qadimgi ipak yo'li yo'nalishida joylashgan, mil.avv. III asrda qad kotargan yirik shahar bo'lib, uning saqanib qolgan maydoni 150 hektar. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Shahar maydonida Qang' xoqonining o'rdasi, shahar ibodatxonasi, savdo-sotiq va hunarmandchilik mavzelari, yo'llar, hovuzlar, bozor maydonlari, turor-joy massivlari ochib o'rganilgan. V asr o'rtalariga kelib qang' davlati parchalanib ketadi, Qanqa esa endi Choch maliklarining poytaxti bo'lib qoladi. Qanqadan V asrga oid Choch maliklarining rasmi tushirilgan tangalar, loyga Choch maliklarining surati bosilgan bullalar (haykal nusxasi) topilgan.

Xitoy manbalarida Qang' davlati xoqonlarining poytaxti Bityandan boshqa yozgi qarorgohi ham bo'lган deyiladi. Qang' davlatining yozgi qarorgohi manbalarda eslatib o'tilgan Tarband (hozirgi O'tror shahri xarobasi) shahri edi. Tarband toponimi VIII asrga oid turkiy tosh yozuvida "Kang'u Tarband" deb eslatiladi. Tarband (O'tror) Qang' davlati parchalanib ketgach (V asr o'rtalari), Choch davlatining tarkibida qoladi.

Shunday qilib, Qang' davlatining ikkita markazi bo'lgan. Ulardan biri Qanqa (Qang'diz) bo'lib, u Toshkent vohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar, arxeologik tadqiqot natijalariga ko'ra, mil. avv. III asrda bunyod etilgan bo'lib, u Qang' podsholarining doimiy qarorgohi bo'lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O'tror (Tarband) esa Qang' davlati xoqonlarining yozgi qarorgohi bo'lgan.

Qadimgi Xitoy manbalarida qangarlarga qarashli 5 ta viloyat tilga olinadi. Ular Susie, Fumu, Yuni, Gi, Yuegan bo'lib, bu nomlar Xitoy tarixchilari tomonidan berilgan mahalliy nomlarning xitoycha tarjimalaridir. Tarixiy joylar va shaharlar nomlarini xitoylashtirish (shunday holat yunon tarixchilarida ham uchraydi) xansularga xos ulug' Xitoy shovinismining asosiy maqsadi edi. Afsuski, mahalliy nomlar bizgacha yetib kelmagan. Ular haqidagi ma'lumotlar xitoycha nom bilan qadimgi xitoy manbalarida uchraydi.

Dayuan (Dovon) podsholigi. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlatiga qaraganda Dovon podsholigi haqida ma'lumot ko'proq. Qadimgi Xitoy tarixchisi Sima Syanning "Tarixiy xotiralar" ("Shi Ji") asarida yozilishicha: Dovon Xan sulolasidan 10 mingli (Li qadimda tahminan 0,5 km ga teng bo'lgan, hozir esa - 576 m. deb qabul qilingan) olisda bo'lib, xunlarning g'arbi-janubiga, Xan (sulolasini)ning aynan g'arbiga to'g'ri keladi. Dovonliklar avloddan-avlodga o'troq hayot kechirib kelgan ekan. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanib, sholi, bug'doy ekar ekan. Uzum sharobi chiqarar ekan. Dovonda asl otlar ko'p bo'lib, mazkur otlarning hammasi tulpor otlardan ekan. Badanidan qizil ter tomchilari (yaltirab) chiqib turar ekan. (Dovonda) shahar, qal'a, uy-joylari bor, katta-kichik 70 dan ortiq shaharlar bor ekan. Ularda 60 ming oila (300 ming odam) yashar ekan. Bu davlat askarlari o'q-yoy, nayza ishlatar ekan va ular otga minishga, o'q-yoydan foydalanishda mohir mengan ekan. Shimolda Kanguy, g'arbda Da-yuechjilar, janubi-g'arbda Baqtriya, shimoli-sharqda Usun, sharqda Dandan uylik, Uduн bor ekan. Bu asarda ya'ni "Shi Ji" da Dovonning ikkita poytaxti bo'lganligi, ularning biri Ershi bo'lsa, ikkinchisi Yu (Yuchen) ekanligi tilga olinadi. Bu ikki



shaharning lokalizatsiyasi masalasida olimlar o'rtaida hozirgacha ilmiy munozara va bahslar davom etadi. O'zbekiston tarixining 1950-yilda chop etilgan nashrida Dovon hukmdorining qarorgohi Gushan (Yuchen)ni O'zgan shahri bilan taqqoslanadi, Ershi esa, A.N.Bernshtamga asoslanib, Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan Mingtepa deb ko'rsatiladi. O'z davrida N.Ya.Bichurin Ershi Qo'qon bo'lishi kerak, degan g'oyani O'rtaqa tashlagan. E.Shavanna tahliliga ko'ra, Ershi shahri O'ratega yoki Jizzax bo'lishi kerak. Ershi shahrining lokalizatsiyasi masalasida A.N.Bernshtam tahlilining tarafдорлари ko'proq. Ammo keyingi yillarda Ershning lokalizatsiyasi masalasida A.Anorboev yangi g'oya bilan chiqib, Ershi bu eski Axsiketdir, degan asosli xulosaga keldi. Ko'pchilik olimlar Gushan (Yuchen) esa Dovon podshosining yozgi qarorgohi sifatida Koson yodgorligi o'rnida bo'lgan, degan fikrda.

Mil.avv. II asrda, ya'ni Xitoy elchisi Chjan Syan qadimgi Farg'onaga kelganda, bu yurt qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak darajada rivojlangan, kuchli qo'shinga ega mamlakat edi. Chjan Syan imperator saroyiga yuborgan hisobotida bu mamlakatni

Dayyuan deb ataydi va uning aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi, ular arpa, bug'doy, sholi, beda, momiq (paxta) ekib, yuqori hosil olishini yozadi. Dayyuankiplarda bog'dorchilik rivojlanganligi, ular uzumdan kishi kayfiyatini ko'taruvchi ichimlik tayyorlashlari, har bir xonadonning yerto'lasida bir nechalab katta xumlarda bunday ichimlik borligi haqida shunday yozadi: "Dayyuanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham buzilmay saqlanadi". Bog'larida uzumdan tashqari, anor, yong'oq va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lismeni Dayyuan bilan bog'laydilar.

Xitoy manbalarining xabar berishiga qaraganda, o'zga davlat va uning qo'shini bilan bo'lgan janglarda dovonliklarning mag'lubiyati uchun oliy hokimiyat egasi hukmdor oqsoqollar kengashi qarori bilan o'lim jazosiga tortilgan. Chjan Syan Dayyuanda bo'lganida "samoviy tulporlar" ga alohida e'tibor bergan. Uning ta'riflashicha, bunday otlar go'yoki qon terlaydi. Chjan Syanning tashabbusi bilan imperator saroyiga har yili ikkitadan arg'umoq ot yuborib turish uchun Dayyuan podshosi Chanfin bilan shartnoma tuziladi.

Xitoy tarixidagi bir rivoyatga ko'ra, "Samoviy tulpor"larni ko'rgan Xitoy imperatori Udi (mil.avv. 140-87 yy.) mashhur Xitoy podshosi Muvong (mil. avv. 1001-947 yy.) kabi tulpor otlarga minib, g'arbga sayohat qilishni orzu qiladi. Orzuga yetish ishtiyoqida imperator Udi fol ochtirganda, folbin: "xosiyatlari otlar kunbotar tomonidan keladi", deb aytgan mish. Udining Xitoy manbalaridagi Muvong qilgan ishlarga qiziqishi bejiz emas edi. Chunki Muvong Xitoy tarixida ko'p g'aroyib ishlari bilan mashhur ulug' inson sifatida tasvirlanadi. Rivoyatlarda u Mutayzi nomi bilan 8 ta tulpor qo'shilgan soyabonli aravada G'arbga sayohat qilib, avliyo ona Shivangmu huzurida mehmon bo'lgan. Xitoy tadqiqotchilari tahliliga ko'ra, Shivongmu shimoliy Hindiston va janubiy



Turkiston zaminida 4-5 ming yillar muqaddam (Hindistonda - Uma, Turkistonda - Umay nomi bilan) boqiy hayot ramzi, ilohiyashgan ona obrazi sifatida tasvirlanadi. Umay onani ziyorat qilish uchun "tulpor otlar" yordamida qushday uchib, bulutlarni yorib o'tib, ming chaqirim yo'llar bosib, u (Umay ona) turgan manzilga yetib borishi mumkin edi. Rivoyatni tarixiy haqiqat deb tushungan imperator Udi mashhur Dayyuan tulporlarini qo'lga kiritib, xoqonlik shuhratini oshirsam, "Dunyo hukmdori", "Tangrining o'g'li" deb tanilaman, degan orzu havasga beriladi. Shu bois, u ashaddiy dushmani xunnlarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirish bilan birga zabit Chjan Syanni g'arbiy mamlakatlarga ayg'oqchi qilib yuborgan. Chjan Syanning vazifasiga nafaqat ittifoqchi topish va zotli otlarga ega bo'lish kirgan, balki u Dayyuan, Da-yuechjilar, Kanguy, Parfiya kabi mamlakatlarning hududiy chegaralari, ularning boyligi, iqtisodiy qudrati, harbiy kuchi, turmush tarzi va urf odatlari haqida ma'lumot to'plash ham kirgan.

Chjan Syan axborotlarida Dayuechji va Kanguy podsholiklari harbiy jihatdan Xitoydan kuchliroq ekanligi, boshqa podsholiklar esa ulardan harbiy jihatdan kuchsizroq bo'lib, xunnlar ta'sirida ekanligi, ammo ularning barchasida Xitoy mollariga katta qiziqish mavjudligi, ayniqsa Dayyuan Xitoy bilan savdo-sotiq qilishga ishtiyoq bildirgani, bu masalada ular mustaqil siyosat olib borishi mumkinligi bayon etiladi. Chjan Syanning Dayyuanda bo'lishi Xitoy-Dayyuan munosabatlarining rivojlanishiga olib keldi. Xitoyliklar imperator Udining maxsus istirohat bog'larida bedazorlar tashkil etib, Farg'ona tulporlarini boqa boshlaydilar. Karvonlar Usun mamlakatidan ham zotli otlarni Xitoya olib borib, imperator Udini mamnun qilishgan edi. Ularni ham Xoqontulpor otlar sifatida e'zozlagan. Ammo Farg'ona "samoviy tulporlari"ni ko'rganda, usun zotli otlarini "tulpor" deb atashdan voz kechib, "uzoq kunbotar oti" deb, Dayyuan otlarini esa "haqiqiy tulpor" deb ataydi.

Xitoy savdo karvonining O'rta Osiyo mamlakatlariga borgan elchilari o'z axborotlarida Xitoydan g'arbda joylashgan ko'pgina davlatlar, jumladan Dayyuan podsholigining harbiy kuchlari Xitoynikiga nisbatan zaif ekanligi, ozgina kuch bilan bir hamla qilinsa, ular hisobiga buyuk Xan sulolasining hududi kengayishi mumkinligi haqida xabar beradilar. Masalan, Dayyuanga borgan elchi Yav Dingxan "Dovon harbiy kuch jihatidan ojiz. Agar 3 ming askar yuborilsa, kuchli o'q-yoylar yordamida Dayyuanni tor-mor qilsa bo'ladi" deb yozadi. Dovon bilan urushni tezroq keltirib chiqarish maqsadida safardan qaytgan elchilar: "Dayyuanda yaxshi otlar bor. Uni Ershi shahriga yashirib qo'yib, Xan elchilariga bermayotir" deb arz qiladilar. Endi Xitoy imperatori Dovonga urush ochish uchun bahona qidira boshlaydi. Imperator Udi a'yonlari bilan maslahatlashib, Dayyuan podsholigidan "samoviy tulporlar" talab qilib, favqulodda huquqlar bilan Che Li boshchiligidagi maxsus elchilar guruhi tashkil qiladi. Elchilarga Farg'ona arg'umoqlarini sotib olish uchun oltin va misdan ishlangan 600 ga yaqin "Zar ot" haykali berib, shularni "samoviy tulporlar"ga almashtirib kelishni topshiradi. Elchilar Ershiga kelib, sovg'a-salomni topshirsa-da, Dayyuan podshosi ular talab qilgan miqdorda tulporlarni berib yuborishi mumkin emas edi. Shu bois, Xitoy



elchilari rad javob oladilar. Maqsadlariga erisha olmagan elchilar Farg'ona hukmdoriga hurmatsizlik qilib, uni haqoratlaydilar, uning ko'z o'ngida "zar ot" larni sindirib tashlaydilar. Ammo podsho muloyimlik bilan oqilona javob qilib, elchilarni poytaxtdan chiqarib yuboradi va Yucheng (O'zgan) shahri hokimining qo'li bilan ularni yo'q qiladi. Shunday qilib, Xitoy-Farg'ona urushlari boshlanib ketadi.

Xitoy qadimgi Farg'ona podsholigiga qarshi har ikkala yurishida ham amalda g'olib chiqqan emas. Birinchi yurishda Ershiga yetib kela olmay, Lobnorda qattiq qarshilikka uchrab, O'zganda katta talofat ko'rib, Xitoyga qaytib ketgan. Ikkinci yurishda urushga puxta tayyorgarlik ko'rishiga qaramay, Ershini batamom taslim eta olmay, atigi 3 ming ot va Muguuning o'llimiga erishib, 50 mingdan ortiq askardan ajrab vataniga qaytib ketdi, Dovon esa ona Vatanni mardlarcha himoya qila oldi, diplomatiyani ishlatib, Xitoy oldida mustaqillikni saqlab qoldi. Kichik bir podsholik antik davrning buyuk imperiyalaridan biri Xan sulolasining ko'zini ochib qo'ydi. Bu dovonliklarning buyuk g'alabasi edi. Bu ajdodlarimizga xos vatan qayg'usi bilan yashash, uning ozodligi, porloq kelajagi yo'lida mardlarcha kurashga doim tayyorligining bir namunasi edi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi juda qadimiy tarix. U qadimgi tosh davrining ashel bosqichiga borib taqaladi. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari tarixi avvalambor Xorazm, Turkmaniston, Tojikiston hududlaridan topilgan arxeologik yodgorliklar va ilk yozma manba hisoblangan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" asosida o'rganilgan. "Avesto" ning "Videvdat" kitobida O'rta Osiyoning qadimgi viloyatlari va xalqlarining nomlari tilga olingan. Chet el manbashunosligidan dastlab Eron ahamoniylari podsholarining qoyatoshlardagi bitiklarida ham O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlari, kiyim-kechagi va ko'p qirrali hayoti haqida qiziqarli materiallar yunon mualliflarining asarlarida va Xitoy manbalarida ko'proq uchraydi. Bulardan tashqari, arxeologik izlanishlar davomida turli davr va yillarda topilgan mahalliy aholining xorazmiy, bahtariy, sug'diy va "noma'lum yozuv" deb atalmish qisqa va kam bo'lsa-da O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi uchun qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bu yozma manbalar ichida eng qadimgisi, o'tmishda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar nomini ilk bor tilga olgan yozma manba "Avesto"dir. Avestoning muallifi Zardushtra bobomiz hisoblanadi. U mil. avv. VII-VI asrlar oralig'ida yashagan.

O'rta Osiyoda yashagan urug'-qabilalar, elatlar va xalqlar haqida eron ahamoniylari podsholarining qoyatosh, bitiklarida, saroylar devorlariga tushirilgan rasmlarda (Persepol devorlaridagi bo'rtma rasmlar), Behistun, Naqshi Rustam deb atalgan va Suz shahridagi saroy yozuvlarida Eron podsholari Doro I, Kir I va Kir II va boshqalar bosib olgan qo'shni mamlakatlar, shu jumladan O'rta Osiyo mamlakatlari xalqlari, ularning nomlari, urf-odatlari, turmush tarzi haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan, Persepol suratlari Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm xalqlari va sak qabilalarining nafaqat kiyim boshlari va ularga xos hunarmandchilik haqida, balki O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari



etnik tarkibi to'g'risida noyob ma'lumotlar beradi. Umuman olganda, ahamoniy bitiklarida qadimda yashagan yurtimiz xalqlarining viloyatlari, xalqlarning nomlari, siyosiy jatumanlar, saklar yurtiga yurishlar, iqtisodiy hayot va moddiy madaniyat to'g'risida ilmiy manbaviy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorazm tarixi. I, II jild. Urganch. Xorazm. 1997.
2. Jumayev M. Buyuk ipak yo`li aloqalari. T., 1993.
3. K.Usmonov, M.Sodikov, S.Buxonova. "O'zbekiston tarixi" darslik – T., 2006.
4. A.Ibroximov, N. Sultonov, N.Turaev. "Vatan tuyg'usi". – T., 1996.
5. K. Shoniyozov. "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". – T., 2001.
6. Makboboyev B. Shamsutdinov R. Mamajonov A. Buyuk ipak yo`lidagi Farg`ona shaharlari. Andijon. 1994
7. Buyuk ipak yo`lidagi Markaziy Osiyo shaharlari. /Ma`ruzalar bayoni./ Samarqand. 1994.
8. N. Jo`rayev.Tarix falsafasining nazariy asoslari. T; Ma`naviyat. 2008
9. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996.
10. www.fayyllar.org
11. www.tarix.uz